

AFG‘ON RUBOBI KELIB CHIQISH TARIXI

Termiz ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi o‘qituvchisi

Mamatova Adolat

Annotatsiya: Ushbu manbada sozandalik san‘atida o‘ziga hos ijrolarga boy bo‘lgan milliy cholg‘umizga aylangan, imkonyatiga boy bo‘lgan, afg‘on rubobi va uning hozirgi kundagi ijro uslubi takomillashgani haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy, ijrochilik, jonli, san‘at, usta, rubobiy, tarix, musiqa, takomillashgan, zarb, rivoyat. San‘at inson faoliyatining boshqa turlaridan farqli ravishda badiiy obrazlar yaratish orqali voqelikni o‘zlashtiradi.

U kishining hissiyoti va ongiga bevosita ta‘sir qiluvchi shaklda olamni go‘yoki yangidan yaratadi. Lekin san‘atkor hayotni, hodisani, narsalarni nusxa qilib ko‘chirmaydi. U biror obrazga xos bo‘lgan eng umumiy, tipik xususiyatlarni saralab olib, ularning barchasini anglab tushunib, obraz qiyofasini o‘zgartiradi, so‘ng uni rasm, she‘r, musiqa asari shaklida gavdalantiradi. Shunday qilib, san‘at asarlari ham hayot, ham ijodning rasmidir. Ammo san‘atning har-xil turlari hayotning turli-tuman tomonlarini bir xil darajada tasvirlashga qodir emas. San‘atning har bir turi o‘ziga xos mazmun va tamoyillari bilan ajralib turadi. Xo‘sh, musiqa san‘ati o‘zi nima? Uning maqsadi, vazifalari nimadan iborat? Musiqa —ohang (intonatsiya) san‘ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o‘ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o‘zgartirishga yordam beradi. Ma‘lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Musiqa insonning turmush tarzi va ijtimoiy hayotida, mehnat va dam olish chog‘larida albatta ishtirok etadigan bo‘lib, kishini ma‘naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shaxsning ma‘naviy olamini, axloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiyaning samarali quroli hisoblanadi. Musiqaning o‘zi, uning yaratuvchilari, ijro etuvchilari, tinglovchilaridan iborat musiqa madaniyati jamiyat madaniyatidagi muhim bir sohadir. Milliy musiqa madaniyatimizning har qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish, uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Binobarin, o‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cho‘lg‘ular va cholg‘u musiqasi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. Ular barcha xalqlar musiqasi kabi o‘ziga xos tarix va an‘analarga boy. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari o‘zining rangbarangjilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam shavq-zavq va huzur bahshida etmoqda. O‘zbek sozandachilik san‘atida ko‘p cholg‘ular qatori afg‘on rubobi alohida o‘rin tutadi. Bu cholg‘u o‘zining jarangdorligi va inson qalbiga yaqinligi, o‘rganish hamda ijro etish jihatidan bir muncha qulayligi

bilan xalqimizning sevimli cholg'ularidan biriga aylangan. Hozirgi davrda afg'on rubobi o'zbek xalq orkestri va ansambllarida o'z mavqeiga ega bo'lib, yakkasoz cholg'usi sifatida keng tarqalgan. Afg'on rubobi juda qadimiy musiqa cholg'usidir. Zarb bilan chalinadigan cholg'ular safida u o'ziga xosligi, juda boy tenbri bilan ajralib turadi hamda o'zbek xalq musiqasi cholg'ulari oilasida fahrli o'rin egallaydi. Hozirgi davrimizda afg'on rubobi cholg'usi haqida so'z borganda ko'pchilik musiqa muxlislari darhol Afg'onistondan chiqqan soz, deb afg'on milliy kuy ohanglarini yodga oladilar. Lekill, O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarini bizning xalqlarimizni qadimdan sevimli cholg'usi bo'lganligini va mohir sozandalar "Rubobiy" taxallusi bilan mashhur bo'lganliklarini ko'pchilik biladi, «Buyuk ipak yo'li»dan o'tgan savdogarlar savdo-sotiq bilan shug'ilanibgina qolmay bir qatorda o'zlari chaladigan sozlarini esdalik uchun musiqa shinavandalariga in'om qilganlar. Shu bilan birga Sharq xalqlarining milliy sozlarini jahonga tanitib, milliy cholg'u sozlarining rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shganlar degan fikrdamiz. Milliy sozlarimizning kelib chiqish vatani qayer bo'lishidan qat'iy nazar, cholg'uchilar, muxlislarning iste'dodiga qarab soz rivojlanib, ommalashib, hozirgi vaqtgacha turli o'zgarishlarga uchrab, taraqqiy etib kelmoqda. Rubobda mohirona kuy chalish uchun sozanda o'z cholg'usiga, tanlagan kasbiga fidoiy bo'lishi lozim. Shuning bilan birga tinimsiz mehnat qilishi, berilgan asarini ijro bezaklari bilan mustaqil o'rganishi va shu asarini o'ziniki qilib o'zlashtirish, chalganida o'zi ham, eshituvchi ham orom olishi kerak. Professional nota yozuvi bo'yicha ilk bor maxsus afg'on rubobi sinfi 1960-yilda R. Glier nomidagi o'rta maxsus musiqa maktabida, 1964-yilda Toshkent Davlat konservatoriyasida, so'ngra 1975-yilda M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshidagi assistent stajyorlikda ochildi. Afg'on rubobi sharq xalqlarining juda qadimiy musiqa asbobidir. Bu soz o'ziga xos ko'rinishi, jarangiga ko'ra, o'zbek xalq cholg'ulari oilasida alohida o'rin egallaydi. Zarb bilan chalinadigan asboblar safida boshqa cholg'u sozlaridan sadolanish tembri bilan ajralib turadi. Afg'on rubobi Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Misr, Xitoy kabi mamlakatlarda, shuningdek, O'rta osiyoda o'zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan, Bu soz hozirgi vaqtda Toshkent, Buxoro, Sirdaryo, Samarqand, Xiva, Termiz, Farg'ona vodiysida sevib chalinib kelinmoqda, Afg'on rubobining qayerdan kelib chiqishini aniqlash qiyin, chunki turli manbalarda turlicha ta'riflanadi. Rubobning qadimdan qo'llanilib kelinayotganligi haqidagi ma'lumotlarni N. Mironov asarlarida ham ko'ramiz. U shunday deb yozadi: Rubob juda qadimiy afg'onasbobi. U Hindistonda ham uchrab turadi. Qashqarda uni rabob deb ataladi. Professor Fitrat o'zining, (O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi) kitobida bu cholg'u asbobining Xorazm amiri - Muhammad Xorazmshoh davrida (XV asr) Balh shahrida noma'lum shaxs tomonidan yasalganligi haqidagi rivoyatni keltiradi, professor V. Belayev o'zining (o'zbek milliy cholg'ulari) kitobida bu sozni hindrubobi deb ataganlar. Afg'on rubobining

yaratilishi haqida bizgacha turli rivoyatlar yetib kelgan. Bir rivoyatda hikoya qilinishicha: bir kuni Buxoro xonining qizi kasal bo'lib qolibdi. Shunda xon Xitoydan, Hindistondan va yetti iqlimdan donishmand tabib va olimlarni o'z saroyiga chorlaydi, bittayu-bitta qizini qanday qilib davolash mumkinligi haqida maslahat solibdi. Ammo barcha urinishlari behuda ketibdi. Shunda Balh shahrida tug'ilib, o'zi Buxoroda muqim yashab qolgan iste'doli soz yasovchi usta, mohir sozanda xonning oldiga borib, uning qizini davolash uchun urinib ko'rishga ruxsat oladi. Shunda xon; (Qizimni kim davolasa yarim boyligim va qizimni beraman, deb va'da beribdi). Ammo qizni to'g'ridan to'g'ri ko'rish, u bilan suhbatlashish imkoni bo'lmabdi, chunki o'sha davrlarda ayollarni parda orqali ko'rish mumkin edi. Qizning yonida albatta o'zi yaxshi ko'rgan, ishongan sirdoshi kanizagi bolardi. Shunda yigit kanizakni chaqirib, qiz nimaga qiziqadi, nima uchun hech kimni yoqtirmasligi va ko'p xayol surishini so'rabdi. Shunda kanizak yigitga xonzoda nihoyatda tovuylarga ixlosi balandligini, ayniqsa, u qanotlarini yoyib o'z chiroyini ko'z-ko'z qilganda: Qani endi shu tovuylar kuylasa, mening (dardimga davo bo'lardi) degan gapini kanizak yigitga yetkazibdi. Shundan keyin Balhlik yigit Buxorodagi O'z ustaxonasida ilk bor tovuylarga o'xshatib rubob yasaydi vaxonzoda huzuriga borib parda orqasida rubob chalib, uni maftun etadi. Xonzoda rubobdan chiqayotgan yoqimli sadolardan bahramand bo'lib o'z holiga kelib, avvalgidan ham go'zallashib ketibdi. Buni ko'rgan xon va'dasida turib, sozandaga qizini va yarim boyligini beribdi. (Shunda bu rubob kimmiki deb so'raganda, bu rubob ana shu afg'onniki, deb odamlar aytishibdi). Vaqt o'tishi bilan yigit va xonzoda uzoq yillar baxtli hayot kechirishib, farzandli bo'lishibdi va ullaning farzandlari ham shu otasi xitiro qilgan Rubobni Buxoroda bir necha yillar davomida rivojlantirib kuylar ijro etib kelishibdi. Takomillashtirilgan afg'on rubobini diapazoni kengaytirilib sozandaga nafaqat o'zbek xalq kuylarini ijro etish, balki jahon kopozitorlarining asarlarini chalishga texnik, imkoniyatlari paydo bo'ldi. Afg'on rubobi asosan 3 qismdan: kosa, dasta, bosh qismlardan tashkil topgan. Kosa bir-biriga yopishtirilgan bir nechta taxtachadan, pastki va yuqorigi qopqoqdan, torlarni mahkamlashga mo'ljallangan ilmoqlardan iborat. Ustki qopqoqqabaliq teri qoplangan bo'lib, unga xarrak o'rnatiladi. Hozirgi vaqtda ustalarimiz kosani tut daraxtidan yoki o'yma qovurg'asimon qilib ham ishlamoqdalar. Pastki qopqoq yog'ochdan tayyorlanib kosaga zich qilib birlashtiriladi. Dasta kosaga mahkam birlashtirilib, unga 19 ta parda o'rnatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G., „Ergashev.“ Afg'on rubobi” (darslik) -Toshkent -“Bilim”-2004